

“Texnik va texnologik jarayonlarida axborot xavfsizligini ta’minlash ” mavzusiga oid muammoli topshiriq

Vaziyat. Tasavvur qiling, siz ishlab chiqarish korxonasida IT va texnik tizimlar xavfsizligi bo‘yicha mutaxassis sifatida ishlaysiz. Korxonada barcha texnologik jarayonlar (masalan, ishlab chiqarish liniyalari, avtomatlashtirilgan uskunalar, ma’lumotlar almashinuvi) kompyuter tizimlari orqali boshqariladi.

So‘nggi paytlarda quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

- a. Ma’lumotlarning ruxsatsiz kirish xavfi;
- b. Virus va zararli dasturlar hujumi;
- c. Tizim ishdan chiqishi (nosozliklar);
- d. Maxfiy ma’lumotlarning tarqalishi;

Shu sababli korxonada axborot xavfsizligini kuchaytirish choralarini ko‘rmoqchi.

Ammo quyidagi muammolar mavjud:

- Xodimlarning xavfsizlik bo‘yicha bilimlari yetarli emas;
- Zamonaviy himoya tizimlari yo‘q;
- Tizimlarni muntazam nazorat qilish yo‘lga qo‘yilmagan;
- Texnik infratuzilma yetarli emas;

Topshiriq. Muammoni hal qilish bo‘yicha yechim ishlab chiqish.

Quyidagi savollarga asoslangan holda yechim tayyorlang:

1. Muammoni tahlil qilish:

- Korxonada axborot xavfsizligi bilan bog‘liq asosiy muammolar nimalar?
- Texnologik jarayonlarda xavfsizlikning past bo‘lishi nimaga olib keladi?

2. Yechimlar ishlab chiqish:

- Axborot xavfsizligini qanday ta’minlash mumkin?
- Qaysi texnologiyalar samarali?

3. Strategiya:

- Axborot xavfsizligini bosqichma-bosqich qanday joriy etasiz?

- Xodimlarni o‘qitish qanday amalga oshiriladi ?

4. Xavf va cheklovlar:

- Dasturiy muammolar qanday?

- Xodimlarning yangi tizimga moslashishida qanday qiyinchiliklar bo‘ladi?

5. Natijalarni baholash:

- Samaradorligini qanday o‘lchaysiz?

- Qaysi KPI ko‘rsatkichlardan foydalanasiz?

(vaqt tejalishi, xatolik kamayishi, loyiha sifati, xarajatlar kamayishi)

Muammoli topshiriqni bajarish orqali kutilayotgan natija:

Talaba quyidagilarni namoyish etishi kerak:

- Axborot xavfsizligi tushunchasi;

- Texnik tizimlarda xavfsizlikni ta’minlash;

- Zamonaviy himoya vositalari;

- Muammoni tahlil qilish va yechim ishlab chiqish;

- Xavfsizlik samaradorligini baholash;